O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIY TARAQQIYOT
VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VAZIRLIGI HUZURIDAGI
“LOYIHALAR VA IMPORT KONTRAKTLARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISH MARKAZI”
DAVLAT UNITAR KORXONASI

2022-yil 18 март №14/01-06/1-1732 100084, Toshkent, Amir Temur shoh ko‘chasi,107-B

**“Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish direksiyasi” DUK**

## Tender hujjatini kompleks ekspertiza natijalari bo‘yicha

## XULOSA

| | |
|---|---|
| **Loyihaning nomi** | Sariosiyo tumani “Bog‘cha” aholi punktidan Shahrisabz tumani Kamar qishlog‘iga olib boruvchi 2-toifali 78 km uzunlikdagi yo‘l qurish obyekti ishchi loyihasini (IL) ishlab chiqishga. |
| **Buyurtmachi arizasining raqami va sanasi** | 2022-yil 7-martdagi DI/05-371-sonli xati (Reg. raqami 34425). |
| **Buyurtmachi** | “Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish direksiyasi” DUK. |
| **Loyiha amalga oshirilishi uchun asos** | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi PQ-98-son qarori. 2022-yilga mo‘ljallangan manzilli ro‘yxati. |
| **Moliyalashtirish manbai** | Davlat byudjet mablag‘lari hisobidan. |
| **Loyihaning chegaraviy narxi** | 22 500 000 000 so‘m, QQS bilan,<br>19 565 217 391 so‘m, QQS siz. |
| **Ekspertiza o‘tkazish uchun asos** | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 — yil 8 — yanvardagi PQ-3464-sonli va 2018-yil 20-fevraldagi PQ-3550-sonli qarorlari. |

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUK “Sariosiyo tumani “Bog‘cha” aholi punktidan Shahrisabz tumani Kamar qishlog‘iga olib boruvchi 2-toifali 78 km uzunlikdagi yo‘l qurish obyekti ishchi loyihasini (IL) ishlab chiqishga.” obyekti bo‘yicha tender hujjatining ish hajmlari va ularning narx parametrlari qismida takroriy o‘tkazilgan kompleks ekspertiza natijalari bo‘yicha e’tirozlar mavjud emasligi va davlat xaridlarini belgilangan tartibda o‘tkazish mumkinligini ma’lum qiladi.

Buyurtmachi davlat xaridlarini maxsus axborot portalida, ommaviy axborot vositalarida va rasmiy veb-saytlarda tender (tanlov) o‘tkazish to‘g‘risidagi e’lonni joylashtirish orqali qurilish pudrat tashkilotlarini keng jalb etilishini ta’minlashi kerak.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-iyundagi 261-sonli “Markazlashtirilgan kapital qo‘yilmalar hisobidan amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda shartnomaviy joriy narxlarga o‘tish to‘g‘risida”gi qarorining 1-ilovasi 4-bandiga muvofiq buyurtmachi tomonidan aniqlangan boshlang‘ich qiymati tanlov savdolari (tenderlar) o‘tkazishda yo‘nalish hisoblanadi va pudrat shartnomasi (kontrakt) tuzish uchun asos bo‘lib xizmat qilmaydi. Obyektning shartnoma qiymati o‘tkazilgan tanlov savdolari (tenderlar) natijalari bo‘yicha aniqlanadi.

O‘z navbatida buyurtmachi haqqoniylik, ratsionallik, iqtisod tamoyillariga rioya qilish, moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunda nazarda tutilgan xaridlarni amalga oshirishda shaffoflik va korrupsiyaga yo‘l qo‘yilmasligini ta’minlashga javobgardir.

**M. Allabergenov**

B. Xusanov

G’. Shodiyev

L. Do’smuhamedov

K. Raximbekov